



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ

Илимий-методикалық журнал

№ 6.2.1 2023

гуманитарные науки
естественные науки
технические науки

1-ДЕКАБРЬ ҚАРАҚАЛПАҚ ТИЛИНЕ
МӘМЛЕКЕТЛИК СТАТУС БЕРІЛГЕН КҮН

МАЗМУН ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Fozilov O. O'zbek va ingliz tillarida hosila nominalining motivatsion asoslari (perefrazalar misolida).

Aliyeva Z. Ornitonim komponentli ingliz va o'zbek idiomalarining tahlili

Alimova Sh. Ingliz va o'zbek tillarida pora va ta'magirlik konseptlarining lingvomadaniy va semantik talqini

Aliyeva Z. Ingliz va o'zbek tilida ornitonim komponentlari bo'lgan frazeologik birliklar haqida ilmiy qarashlar.

Eshquvvatova G. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning tasnifi food/taom komponentli frazeologik birliklari misolida.

Марданов А. Основные понятия логико-семантических моделей

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Maxmudova M. Yan Amos Komenskiyning pedagogik faoliyati va nazariyasi

Jabborov M. Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashning shakl va metodlari.

Mahkamova Sh. Innovatsion texnologiyalar asosida musiqa san'ati boshqaruvi

Xo'jamqulov P, Musayev N, Muminova D. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida ta'limiy-tarbiyaviy immunitetni shakllantirish yo'llari.

Qayumov J. O'quvchilarga xonandalik asarlarini erkin va ifodali kuylatish uslublari.

Musayev N, Xo'jamqulov P, O'zbek milliy maqom san'atini yosh ijrochilarga o'rgatishda etibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar.

Rajabova S. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda Marvelous Designer dasturidan foydalanish metodikasi

Yunusov O. Musiqa ta'limida qo'shiq kuylash ijodiy faoliyatga o'rgatish

Umarov A. Pedagogik-kasbiy kompetentlik ta'lim jarayonini rivojlantirishning muhim omili sifatida.

Eshankulova D. Umumta'lim maktablarida kimyo fanining o'qitilishi va zamonaviy interfaol metodlarning qo'llanilish uslublari.

Yadgarova D. Talabalar valeologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish.

Lafasov B Texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda "steam – ta'lim".

Mo'minov K. Forsayt texnologiyalar asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuv

Qulmatov Z. Pedagogik tadqiqotlarda ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasi

Umirova G. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida rahbarlik qobiliyati va boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishning tarkibiy qismlari

Axmedova M. Mustaqil va o'quv topshiriqlarini metodik takomillashtirishda ona tili fanining vazifalari

Qosimov Sh. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish

Xayitova Sh. Oilada o'zaro muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik omillari

Xoliqova R. Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini metodik-pragmatik takomillashtirish

Muxitdinova M. Syomkina A, Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyalari

Maxkamova M. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari

Muslimov Sh. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirish mezonlari

Xaydarova M. Ta'lim qonunlari - uni samarali tashkil etish bu ba'zi muhim talablar uchun asosdir.

4. Axmedova M.E. Mustaqil topshiriqlar bilan ishlash va ularni baholash metodikasi (modul-kredit tizimida tilshunoslik fanlari misolida). // Metodik qo'llanma, Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ. Toshkent - 2022. 121 bet.
5. Рубинштейн С. Л. Проблемы общей психологии. - Москва: Педагогика, 1976. -416

REZYUME

Maqolada ona tili o'qitish metodikasida muhim ahamiyatga ega bo'lib borayotgan o'quv topshiriqlarini pragmatik yondashuv asosida takomillashtirish masalasi tadqiq etilgan. Unda 5-6-sinf ona tili darslari misolida o'quv topshiriqlaridan foydalanishning joriy holati va kelajakda yaratilajak o'quv topshiriqlariga namuna va mezonlar tavsiya etilgan. Xulosa qismida o'quv topshiriqlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье исследуется вопрос совершенствования учебных заданий, которые становятся важными в методике преподавания родного языка, на основе прагматического подхода. В нем рекомендованы образцы и критерии текущего состояния использования учебных заданий на примере занятий по родному языку в 5-6 классах, а также учебные задания, которые будут созданы в будущем. В разделе "Резюме" описываются предложения по улучшению учебных заданий.

SUMMARY

Article explores the issue of improving educational tasks that become important in the methodology of teaching the native language, based on a pragmatic approach. It recommends samples and criteria for the current state of the use of educational tasks on the example of native language classes in grades 5-6, as well as educational tasks that will be created in the future. The "Summary" section describes suggestions for improving training assignments.

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARI

Muxitdinova M.S.

ChDPU, "Musika ta'limi" kafedrası katta o'qituvchisi

Syomkina A.M.

ChDPU, "Musika ta'limi" kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: metodologik madaniyat, cholg'u ijrochiligi, mahorat, kompetensiya, kasbiy yo'nalish.

Ключевые слова: методологическая культура, инструментальное исполнительство, мастерство, компетентность, профессиональная направленность.

Key words: methodological culture, instrumental performance, skill, competence, professional orientation.

Musika ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarning maxsus ta'lim jarayonida va amaliy musika-pedagogik faoliyati orqali egallaydigan umumiy madaniy, psixologik-pedagogik va musiqiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalardir. O'qituvchining metodologik madaniyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quv jarayonini loyihalash va tashkil qilish;
- pedagogik muammolarni anglash yetish, shakllantirish va ijodiy hal qilish;
- uslubiy refleksiya.

Musika o'qituvchisining metodologik madaniyatiga ega ekanligi asosiy mezoni o'z faoliyatini takomillashtirishda ilmiy-pedagogik bilimlardan, hamda boshqa tadqiqot usullarini tahlillaridan amaliy ishlarida foydalana olishidir. Musiqiy pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi shundaki, u pedagogik vazifalarni musika san'ati vositalari yordamida hal etadi. Musiqiy pedagogik faoliyat o'zlashtirilgan bilimlarni mustaqil umumlashtirish va tizimlashtirish

qobiliyatiga asoslangan pedagogik, xormeyster, vokal, musiqiy va ijrochilik faoliyatini o'zida mujassamlashtiradi.[2]

Musiqqa o'qituvchisining kasbiy madaniyati uning pedagogik jarayonlarning loyihalash va ularning natijalarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati va imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Bo'lajak o'qituvchi har tomonlama rivojlangan, o'z mutaxassisligi bilimdoni, yaxshi psixologik va pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Maktabda ijrochilik faoliyatining asosiy turlari qo'shiq aytish, musiqali va ritmik harakatlar, bolalar cholg'u asboblari ijrodir. O'qituvchiga o'zining ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga musiqqa cholg'usi ijro uslublarini mukammal egallaganligi yordam beradi va u bolalarni musiqani sevishtirishga va tushunishga o'rgata oladi. [2] Musiqqa oliy ta'limida "Cholg'u ijrochiligi" fanini o'qitishda ushbu vazifani bajarish uchun quyidagilar zarur:

- asosiy texnik ko'nikmalar va usullarni, musiqiy va ijodiy qobiliyatlarni - musiqiy uquv va xotirani, ritm tuyg'usini, obrazli fikrlashni, tasavvurni rivojlantirish;

- o'qituvchi rahbarligida (yoki mustaqil ravishda) turli musiqiy asarlar, jahon va milliy madaniyatning, shu jumladan, xalq og'zaki ijodining asosiy uslub va janrlari bilan tanishtirish;

- musiqqa asarini o'zlashtirishning barcha bosqichlarida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

- musiqani ongli idrok etish asosida o'quvchilarning estetik didini tarbiyalash.

Bularning barchasi musiqqa ta'limi yo'nalishi bitiruvchilariga maxsus kasbiy kompetensiyalarni mukammal egallash imkonini beradi:

- kasbiy kelajagining mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish;

- kasbiy muammolarni belgilash va hal qilish, kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni qidirish va unlardan foydalanish;

- kasbiy faoliyatda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.[2]

Bo'lajak musiqqa o'qituvchisining kasbiy ta'lim samaradorligi ta'lim muassasasida amaliyot davrida kasbiy kompetensiyalarni maqsadli shakllantirishga bog'liq.

Pedagogika ta'lim muassasalari talabalari pedagogik amaliyotida ilk bor musiqqa rahbari, musiqqa o'qituvchisi sifatida tajriba orttiradilar, birinchi marta pedagogga qo'yiladigan barcha talablarga to'liq javob berishga harakat qiladilar va o'z faoliyatlariga baho oladilar. Bu ularni kasbiy ongini shakllantirishga faol ta'sir ko'rsatadigan faoliyat bo'lib xizmat qiladi.[3]

Cholg'u ijrochiligi fani o'qituvchisining metodikasi, avvalambor, fandagi yutuqlari va ilg'or pedagogik tajribasiga asoslanadi.

Cholg'u ijrochiligi fani o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligining eng yuqori darajasi metodik madaniyatining mavjudligidir.

Bo'lajak musiqachi-o'qituvchining uslubiy madaniyatini shakllantirish - bilish metodologiyasi mohiyatini tushunish va pedagogik jarayonlarni o'zgartirishga asoslanadi. Metodologiya tushunchasini faqat ilmiy tadqiqot mantiqi va yaxlit pedagogik jarayonni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan tamoyillar tizimi sifatida qabul qilish. Ularning ta'lim va tarbiyaning kundalik amaliyotda, pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun ahamiyatini ochib berish muhimdir.[1]

Uslubiy faoliyatning to'g'ri tanlangan shakllari kasbiy sharoitda talabalarning shaxsiyatini, muayyan ta'lim muassasasidagi pedagogik faoliyatini, maktabgacha yoshdagi bolalar va tarbiyachilar bilan pedagogik muloqotini chuqur o'rganish imkonini beradi.

Musiqiy ijro tayyorgarligi bo'lajak o'qituvchilar uchun eng muhim kasbiy yo'naltirilgan ta'lim faoliyati turlaridan biridir.

Cholg'u ijrochiligi fani shunday asosiy ijodiy laboratoriya bo'lishi kerakki, unda talabalar badiiy-ijrochilik bilimlari, cholg'u ijrosi ko'nikmalari bilan bir qatorda ma'naviy madaniyatini rivojlantirishi, kasbiy ahamiyatga molik fazilatlar majmuasini shakllantirishi lozim.

Cholg'u ijrochiligi fani darslarida talabani musiqiy ijrochilik madaniyati, ma'naviyatini rivojlanadi, faqat musiqqa ijrochilik faoliyatiga xos me'yorlarni o'zlashtirish jarayonlari hosil bo'ladi.

Shaxsning musiqiy-estetik madaniyatining yuqoridagi modeli asosida cholgʻu ijrochiligi fani mashgʻulotlarida yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshiradigan bunday yoʻnalishlar, eng avvalo, quyidagilar boʻlishi kerak:

1. Motivatsion sohani shakllantirish, shu jumladan talaba shaxsining umumiy, badiiy va musiqiy madaniyat sohasidagi turli xil munosabatlari: eʼtiqodlar, qiziqishlar, maqsadlar va boshqalar.

2. Cholgʻu ijrochiligi madaniyatining barcha jabhalariga taalluqli hamda badiiy va musiqa madaniyati haqidagi bilimlar turlari va shakllari tizimini qamrab oluvchi tizimli maʼlumotlarni oʻzlashtirish.

3. Ratsional quyi tizimni musiqiy ijroning barcha shakllari va turlari, shu jumladan uning asosini tashkil etuvchi elementlar: koʻnikma, qobiliyat, malaka va uslublarning yigʻindisi sifatida rivojlantirish.

4. Musiqiy baholash, did, eʼtiqod va nuqtai-nazarlarini shakllantirish bilan bogʻliq boʻlgan baholash quyi tizimini shakllantirish.[4]

Bu oʻzaro bogʻliq va oʻzaro shartli boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalar majmuasi musiqiy ijrochilik tayyorlash jarayonida talabalar tomonidan oʻzlashtirishning yetakchi obʼekti hisoblanadi. Uning ahamiyati shundan iboratki, agar talabalar yetarli darajada yuqori malakaga ega boʻlsalar, ular kelajakda maktab sinfida musiqiy va ijrochilik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshiradilar.

Boʻlajak musiqa oʻqituvchisi zamonaviy insonning umumiy kasbiy fazilatlariga ega boʻlishi kerak, ular orasida:

1. Kasbiy mustaqillik - kasbiy talablarga ongli munosabat, bajarilayotgan ishni rejalashtirish va tahlil qilish qobiliyati.

2. Kasbiy harakatchanlik - insonning yangi kasbiy vazifalarni tezda oʻzgartirish va oʻzlashtirishga tayyorligi va qobiliyati.

3. Masʼuliyat - oʻziga eng yuqori talablarni qoʻyish va oʻz kasbiy faoliyati natijalari uchun javobgar boʻlishga tayyorlik.

4. Individuallik - mehnat bozorida raqobatbardoshlikni kafolatlaydigan individual fazilatlarini aniq ifodalash qobiliyati, nostandart fikrlash.

Adabiyotlar.

1. Де Дегтерева Ксения Сергеевна Основные компетенции педагога-музыканта в детской музыкальной школе // БГЖ. 2018. №4 (25).

2. Kimsanov O. Developing musical skills in the process of studying large-scale works in art school students //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 12. – С. 597-601.

3. Мухитдинова М. Некоторые вопросы организации образовательной деятельности будущих учителей музыки //Международный журнал мультикультурного и полирелигиозного взаимопонимания. – 2022. – Т. 9. – №. 12. – С. 415-420.

4. Miskinova S. Z. Q. Bolalarda cholgʻu musiqa ijrochiligini rivojlantirish //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 3. – С. 1066-1071.

5. Syomkina A. M. O'QUVCHILARNING MUSIQIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH.

REZYUME

Maqola musiqiy oliy taʼlim talabalarining taʼlimi jarayonida egallashi lozim boʻladigan pedagogik kompetensiyalar - kasbiy uslubiyot va musiqiy-ijrochilik mahorati haqida.

РЕЗЮМЕ

В статье речь идет о педагогических компетенциях- профессиональной методологии и музыкально-исполнительском мастерстве, которые должны освоить студенты высшего музыкального образования в процессе обучения.

SUMMARY

The article deals with pedagogical competencies - professional methodology and musical performance skills, which students of higher music education must master in the learning process.